



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGI HAY’ATI YIG‘ILISHI BAYONI

3«iyun»2025 yil.

8-son

Raislik qiluvchi: **Sh.Xidoyatov** – Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri

Qatnashganlar: Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi

Markaziy studiyada: Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining Hay’ati a’zolari, vazir o‘rinbosarlari, vazir maslahatchisi, Apparat rahbari, tarkibiy bo‘linmalar boshliqlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari
(ro‘yxat bo‘yicha)

Hududiy studiyalarda: Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tizimidagi hududiy tashkilotlar rahbarlari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

I. Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining “Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ijrosi to‘g‘risida” 2025-yil 5-maydagi 53-son bayonida belgilangan masalalar to‘g‘risida.

II. Toshkent tumanlararo ma’muriy sudining 2025-yil 16-apreldagi xususiy ajrimining muhokamasi to‘g‘risida.

III. Nazoratdagi hujjatlar bilan ishlash va ijro intizomini mustahkamlash masalalari to‘g‘risida.

IV. Murojaatlar bilan ishlash va navbatchi dispetcherlik xizmati faoliyati to‘g‘risida.

(Xidoyatov, Adilov, Alimatov, Jurayeva, Imomov, ... Xidoyatov)

Kun tartibidagi masalalarni atroflicha muhokama qilib, shuningdek, mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, vazirlikka yuklangan vazifa va topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish, shuningdek, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash, nazoratdagi hujjatlar va murojaatlar bilan ishlashni yanada kuchaytirish maqsadida, Hay’at yig‘ilishi

QAROR QILADI:

I. Vazirlar Mahkamasi Rayosatining “Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan harakat dasturini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ijrosi to‘g‘risida” 2025-yil 5-maydagi 53-son bayonida belgilangan masalalar to‘g‘risida

1. Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2025-yil 5-maydagi 53-son bayoni ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

Mazkur bayon bilan:

qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining Harakat dasturi bo‘yicha qurilish va shaharsozlik sohalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida amalga oshirilgan ishlar hamda joriy yilda bajarilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalar ijrosini tashkil etish to‘g‘risidagi hisobotlari ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

vazirlik va idoralar rahbarlarining e‘tibori ular tomonidan Chora-tadbirlar rejasidagi topshiriqlarni o‘z vaqtida, to‘liq hajmda va sifatli bajarish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar yetarli emasligiga ko‘rsatib o‘tilganligi **inobatga olinsin.**

2. Quyidagilarga:

Chora-tadbirlar rejasiga muvofiq, topshiriqlarni bajarish bo‘yicha nazorat va hisobdorlikni ta‘minlashni belgilangan tartibga qat’iy amal qilgan holda tashkil etishga;

Harakat dasturining **2025-yilning I-choragida** belgilangan topshiriqlar ijrosi bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan kamchiliklardan xulosa chiqargan holda, **2025-yilning II-choragida** belgilangan tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi bo‘yicha barcha zarur choralar ko‘rilishini ta‘minlashga;

kamchiliklarga yo‘l qo‘yayotgan mas‘ul rahbarlarga qat’iy choralar ko‘rilishi hamda bajarilmagan har bir topshiriqqa yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan holat va jiddiy masala sifatida qaralishi lozimligi va bajarilmagan topshiriqlarni o‘zlarining hay‘at (kengash) yig‘ilishlarida tanqidiy muhokama qilinishiga;

ijro muddati 2025-yil aprel oyiga belgilangan topshiriqlarni joriy yil 10-mayga qadar to‘liq bajarish choralarini ko‘rishga;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini moliyaviy, iqtisodiy va huquqiy ekspertizadan o‘tkazishda har bir loyihada nazarda tutilgan topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan resurs va imkoniyatlar mavjudligiga, ijro muddatlari to‘g‘ri belgilanishiga alohida e‘tibor qaratishga;

har oyning 25-sanasiga qadar Harakat dasturida zimmasiga yuklangan topshiriqlarning ijro holati bo‘yicha ma‘lumotlarni (tasdiqlovchi materiallar bilan birgalikda) belgilangan tartibda Adliya vazirligiga taqdim etib borishga **alohida e‘tibor qaratilsin.**

3. Vazirlik markaziy apparati boshqarma (bo‘lim) boshliqlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari mazkur topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish, nazoratdagi hujjatlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, bu borada xodimlar mas‘uliyatini

kuchaytirish va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha **keskin va ta'sirchan choralar ko'rsin.**

4. Apparat rahbari **V.Imomov**, Ijro nazorati bo'limi (**V.Mamedov**) Harakat dasturidagi topshiriqlar ijrosi ta'minlanishini qat'iy nazoratga olgan holda, topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarmagan boshqarma (bo'lim)lar va tizim tashkilotlari rahbar va xodimlarining **oylik reyting ko'rsatkichlariga (KPI) nisbatan jarima qo'llash bo'yicha Rahbariyatga taklif kiritib borsin.**

II. Toshkent tumanlararo ma'muriy sudining 2025-yil 16-apreldagi xususiy ajrimining muhokamasi to'g'risida.

5. Toshkent tumanlararo ma'muriy sudining 2025-yil 16-maydagi xususiy ajrimi **ijro uchun qabul qilinsin.**

Xususan, xususiy ajrimda quyidagi muammo va kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi ko'rsatib o'tilganligi inobatga olinsin:

arizachi "Vostok Produkt City" MCHJ sudga ariza bilan murojaat qilib, unda javobgar Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga nisbatan vazirlik qoshidagi Shaharsozlik sohasidagi nizolarni sudga qadar ko'rib chiqish va hal etish bo'yicha idoralararo komissiyaning 2024-yil 20-dekabrda 24/2-son qaror shaklidagi yig'ilish bayonini o'ziga taalluqli qismini haqiqiy emas deb topish so'raganligi;

aniqlanishicha, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi qoshidagi Shaharsozlik sohasidagi nizolarni sudga qadar ko'rib chiqish va hal etish bo'yicha idoralararo komissiya qonun talabiga zid ravishda Samarqand viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasining xatiga asosan ko'rib chiqib, qaror qabul qilganligi;

qonunchilik normasidan kelib chiqib, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berish to'g'risidagi qarorning qonunga xilofligi aniqlangani bois ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar sud tomonidan bekor qilinishi nazarda tutilganligi;

sudning 2025-yil 16-maydagi hal qiluv qarori bilan arizachining talabi qanoatlantirilganligi.

6. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi qoshidagi Shaharsozlik sohasidagi nizolarni sudga qadar ko'rib chiqish va hal etish bo'yicha idoralararo komissiya raisi o'rinbosari **A.Xudoynazarov** va kotibi **A.Usmanov** yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun **qat'iy ogohlantirilsin.**

7. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati boshqarma (bo'lim) boshliqlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari tomonidan:

xususiy ajrimda ko'rsatilgan kamchiliklarga **alohida e'tibor qaratilsin;**

kamchiliklarga yo'l qo'ygan mutasaddi xodimlar **qat'iy ogohlantirilsin;**

kelgusida ushbu kamchiliklarga yo'l qo'ygan taqdirda mas'ullarga nisbatan **qat'iy va ta'sirchan choralar ko'rish belgilab qo'yilsin.**

Yuqorida qayd etilgan muammo va kamchiliklar takrorlanmasligi yuzasidan tegishli **chora-tadbirlar belgilansin.**

8. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi qoshidagi Shaharsozlik sohasidagi nizolarni sudga qadar ko'rib chiqish va hal etish bo'yicha idoralararo komissiyaga nizoli masalalar kelib tushganda amaldagi qonunchilikka muvofiq sud organlariga murojaat etish tushuntirilsin.

III. Nazoratdagi hujjatlar bilan ishlash va ijro intizomini mustahkamlash masalalari to'g'risida

9. Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro holati **har hafta dushanba kuni** rahbar huzurida va **har hafta juma kuni** esa rahbar o'rinbosari huzurida muhokama qilinib, tegishli choralar belgilab borilayotganligi **inobatga olinsin.**

10. Vazirlik markaziy apparati boshqarma (bo'lim) boshliqlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlariga:

“app.ijro.uz” tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlardan 2025-yil 30-may holatiga **26 tasining**, jumladan **asosiy ijrochi 2 ta** (*M.Mustapov – 1 ta, M.Inoyatov – 1 ta*) va **hamijrochi 24 ta** (*A.Usmonov – 9 ta, S.Eshquvvatov – 4 ta, A.Azizov – 2 ta, M.Mustapov – 2 ta, B.Maxmudov – 2 ta, O.Muminov – 2 ta, D.Miliyev – 1 ta, Sh.Odilov – 1 ta, Sh.Atadjanov – 1 ta*);

“ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlardan **2025-yil 30-may** holatiga **24 tasining** (*Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari – 21 ta, Hukumat komissiyasi topshiriqlari – 3 ta*) ijro muddati buzilganligi **qattiq ko'rsatib o'tilsin;**

“ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlarning ijro muddati buzilishiga yo'l qo'ygan mutasaddi rahbar va xodimlar **qattiq ogohlantirilsin;**

kelgusida ushbu kamchiliklarga yo'lgan taqdirda mas'ullarga nisbatan **qat'iy va ta'sirchan choralar ko'rish belgilab qo'yilsin.**

11. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati boshqarma (bo'lim) boshliqlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari:

“Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlarni o'z vaqtida, to'liq hajmda va sifatli bajarish bo'yicha **qat'iy nazorat o'rnatsin;**

iyun oyida bajarilishi lozim bo'lgan **365 ta**, jumladan:

a) **asosiy ijrochi – 167 ta** (*A.Usmonov – 19 ta, S.Eshquvvatov – 19 ta, G.Raximov – 17 ta, B.Karimov – 14 ta, S.Qo'shoqov – 13 ta, A.Mirzakarimov – 12 ta, M.Zagrutdinov – 9 ta, Sh.Odilov – 8 ta, O.Muminov – 8 ta, R.Xabibullayev – 8 ta, A.Azizov – 5 ta, D.Miliyev – 5 ta, I.Djurayev – 5 ta, U.Bayzakova – 4 ta, M.Mustapov – 4 ta, R.Rasulov – 3 ta, J.Fayziyev – 2 ta, S.Usmanov – 2 ta, V.Mamedov – 2 ta, K.Abduvahhobov – 2 ta, F.Esanboyev – 2 ta, M.Sultonov – 1 ta, M.Inoyatov – 1 ta, O.Xayitov – 1 ta, I.Mamanov – 1 ta*);

b) **hamijrochi – 198 ta** (*A.Usmonov – 72 ta, S.Eshquvvatov – 23 ta, R.Xabibullayev – 19 ta, G.Raximov – 18 ta, A.Azizov – 14 ta, O.Muminov – 6 ta,*

D.Miliyev – 4 ta, S.Qo‘shoqov – 4 ta, M.Zagrutdinov – 4 ta, M.Sultonov – 4 ta, B.Karimov – 3 ta, U.Bayzakova – 3 ta, M.Mustapov – 3 ta, A.Mirzakarimov – 2 ta, J.Fayziyev – 2 ta, I.Djurayev – 2 ta, S.Usmanov – 1 ta, Sh.Atadjanov – 1 ta, Sh.Odilov – 13 ta) topshiriqlar ijrosi ta‘minlanishiga **shaxsan alohida e‘tibor qaratsin;**

mazkur topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish, nazoratdagi hujjatlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, bu borada xodimlar mas‘uliyatini kuchaytirish va faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha **keskin va ta‘sirchan choralar ko‘rsin;**

amalgga oshirilgan ishlar natijasi hamda ko‘rilgan choralar yuzasidan belgilangan muddatlarda ijro nazorati tizimiga **axborot kiritin.**

12. Vazir o‘rinbosarlari, Ijro nazorati bo‘limi (**V.Mamedov**) tegishli boshqarma (bo‘lim) va tizim tashkilotlari bilan birgalikda **vazir o‘rinbosarlarining “Ijro.gov.uz” tizimida ijro muddati 2025-yilning iyun oyiga belgilangan nazoratdagi topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha tasdiqlangan “Yo‘l xarita”lari** ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta‘minlasin hamda shu asosda **tizimli ishlarni tashkil etsin.**

13. Apparat rahbari **V.Imomov**, Ijro nazorati bo‘limi (**V.Mamedov**) nazoratdagi topshiriqlar ijrosi ta‘minlanishini qat‘iy nazoratga olgan holda, topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarmagan boshqarma (bo‘lim)lar va tizim tashkilotlari rahbar va xodimlarining **oylik reyting ko‘rsatkichlariga (KPI) nisbatan jarima qo‘llash bo‘yicha Rahbariyatga taklif kiritib borsin.**

IV. Murojaatlar bilan ishlash va navbatchi dispetcherlik xizmati faoliyati to‘g‘risida

14. Murojaatlar bilan ishlash va dispetcherlik xizmati bo‘limi boshlig‘i **B.Maxmudovning** jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlar bilan ishlash to‘g‘risidagi **hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.**

15. 2025-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan **jami 9 859 ta** murojaatlar kelib tushib, shundan **116 ta** murojaatlarning ijro muddati buzilganligi **qattiq ko‘rsatib o‘tilsin** (*Ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti – 20 ta, Toshkent shahar Uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi va uning tuman bo‘limlari – 49 ta, Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi – 47 ta*).

16. Toshkent shahar Uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi va uning tuman bo‘limlari, Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi boshliqlari:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash masalalarida **kamchilik va qoloqliklarga yo‘l qo‘ygan mas‘ul xodimlarga nisbatan mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda intizomiy jazo chorasini qo‘llasin;**

intizomiy jazo chorasini qo‘llanilganligi to‘g‘risidagi buyruq nusxasini ma‘lumot tariqasida vazirlik rahbariyatiga **taqdim qilsin;**

uch kun muddatda yuqorida qayd etilgan murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni chuqur o'rgangan holda, ularning yechimi yuzasidan murojaat egasiga aniq va to'liq javob berilishi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **vazirlikka axborot kiritilishini** ta'minlasin.

17. Tizim tashkilotlari va hududiy bosh boshqarmalar rahbarlari:

fuqarolar qabuli uchun alohida xonalar tashkil etish va xonalarni tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan peshlavhalar va zarur anjomlar bilan ta'minlashga;

sohalardagi tizimli muammolarni o'rganish va ularning yechimini topish, murojaatlarni o'z vaqtida puxta va sifatli ko'rib chiqish, ayniqsa, takroriy murojaatlar asossiz ko'payishining oldini olishga **jiddiy e'tibor qaratsin.**

18. Vazir o'rinbosarlari, Murojaatlar bilan ishlash va dispetcherlik xizmati bo'limi (**B.Maxmudov**):

ijro muddati buzilgan murojaatlar va ularda ko'tarilgan masalalarning **har hafta** bo'lib o'tadigan selektor yig'ilishida batafsil **muhokama qilib borilishini** ta'minlasin;

kelgusida murojaatlar bilan ishlashning natijadorligini oshirish bo'yicha aniq **chora-tadbirlar belgilasin;**

joylardagi shaxsiy va sayyor qabullarni tasdiqlangan jadvallar asosida o'tkazib, aholi bilan samarali muloqot tashkil etsin va bunda birinchi navbatda, aholi tomonidan ko'tarilgan hududiy va sohaviy muammoli masalalarni qonuniy hal etish bo'yicha **barcha amaliy choralarni ko'rsin;**

murojaatlar bilan ishlash tartib-qoidalariga amal qilmagan, ariza va shikoyatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqmagan, fuqarolarni qabul qilishda kamchilik va qoloqliklarga yo'l qo'ygan mas'ullarga nisbatan tegishli choralar qo'llash bo'yicha **rahbariyatga axborot va takliflar kiritsin.**

19. Tizim tashkilotlari va hududiy bosh boshqarmalar rahbarlari yuqorida qayd etilgan **muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish choralari yuzasidan kengaytirilgan tarzda muhokama o'tkazsin** hamda uning natijasi bo'yicha qabul qilingan qarorlar yuzasidan **5 kun muddatda** vazirlikka axborot kiritsin.

20. Apparat rahbari **V.Imomov**, Murojaatlar bilan ishlash va dispetcherlik xizmati bo'limi (**B.Maxmudov**) **jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlarning** ijrosi ta'minlanishini muvofiqlashtirgan holda, murojaatlarning **ijrosini** o'z vaqtida va sifatli ta'minlamagan boshqarma (bo'lim)lar va tizim tashkilotlari rahbar va xodimlarining **oylik reyting ko'rsatkichlariga (KPI) nisbatan jarima qo'llash bo'yicha Rahbariyatga taklif kiritib borsin.**

21. Ijro nazorati bo'limi (**V.Mamedov**) mazkur yig'ilish bayoni ijrosi **nazoratini olib borgan holda,** natijasi bo'yicha rahbariyatga axborot kiritib borsin.

22. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosining nazorati vazir o'rinbosarlari D.Adilov, T.Alimatov, O.Jurayevalar zimmasiga yuklansin.

Vazir



Sh.Xidoyatov